

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT  
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

**ONA TILI TA'LIMIDA  
O'QITISH VA BAHOLASH  
MUAMMOLARI**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy  
anjuman materiallari

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ONA TILI TA'LIMIDA O'QITISH VA  
BAHOLASH MUAMMOLARI**

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari*

**Toshkent 2022**

**UO'K: 494.375:371.3**

**KBK: 74.261.4**

**O - 56**

**Ona tili ta'limdi o'qitish va baholash muammolari.** Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Elektron nashr. – Toshkent: ToshDO'TAU, 2022. – 375 b.

Ushbu to'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi tomonidan tayyorlangan.

**Mas'ul muharrir:**

**M. Abdullayeva** – filologiya fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

<b>Q. Yo'ldoshev</b>	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori.
<b>A. Sobirov</b>	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori.

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

<b>G. Jo'rayeva</b>	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori.
<b>K. Mavlonova</b>	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.
<b>D. To'xliyeva</b>	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.
<b>H. Baxtiyorova</b>	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi magistranti.
<b>Y. Xomidjonova</b>	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi magistranti.
<b>M. Nomozova</b>	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi magistranti.
<b>Sh. Tursun</b>	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasi magistranti.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti Kengashining 2022-yil 4-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To'plamdan o'rinn olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o'zlarini mas'uldirlar.

ko‘nikma – tinglab tushunish, o‘qib tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda yangi darsliklarning qimmati beqiyosdir. Shu bilan birga, o‘quvchilar ma’naviyatini oshirishda ham ahamiyati yuqoriligini yana bir bor ta’kidlab o‘tamiz.

### **Adabiyotlar:**

4. N.Mahmudov va b. Ona tili. Umumiyo o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
5. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov Sh.Tursun. Ona tili. Umumiyo o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2022.
6. Ahmedov S.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyo o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Sharq, 2020. – 272 b.
7. Ahmedov S.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyo o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilari uchun. II qism. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 160 b.

## **6-SINF ONA TILI DARSLARIDA MATN TUZILISHINI O‘RGATISHNING MAZMUN-MOHIYATI**

*Husnora Baxtiyorova,*  
Alisher Navoiy nomidagi  
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

### **Annotatsiya**

*Maqolada matn tuzilishi, 6-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rganishga doir ta’lim mazmuni yoritilgan; topshiriqlardan namuna keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** matn, matn tuzilishi, mazmun, uslub, leksik-grammatik vositalar, til birliliklari.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning matn tuzish, uni tushunish va tahlil qilish o‘quvchi ongingin rivojlanishiga, bog‘lanishli nutqini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning yozma savodxonligi, matn tuzish malakasini oshirish masalasi doimo metodist olimlarning diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan. Xususan, N.Bekniyazovaning “Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatish metodikasi”, M.Rixsiyevaning “Ta’lim rus tilida olib borilayotgan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarni matn tuzishga o‘rgatish metodikasi”, K.Mavlonovaning “Matn tuzilishiga doir qoidalar”, S.Boymirzayevaning “O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriylar”, T.Ziyodovaning “Matn yaratish texnologiyasi”, M.Qurbanova, M.Yo‘ldoshevlarining “Matn tilshunosligi” o‘quv qo‘llanmalari, Q.Qosimova, N.Mahmudov va boshqalar tomonidan yaratilgan tadqiqot ishlari, monografiya, metodik qo‘llanmalarda hamda “Ona tili” darsliklari yuzasidan o‘qituvchilar uchun yozilgan metodik adabiyotlarda yozma ishlarni tashkil qilish, bog‘lanishli nutq tuzish, matn, matn strukturasi, tuzilishi, turlari, o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Mazkur ilmiy-metodik adabiyotlar hamda xorij tajribasida matn strukturasini o‘rgatishga qaratilgan yondashuvlar bilan tanishgan holda matn tuzilishiga oid nazariy va amaliy bilimlarni sinflar kesimida spiralsimon tasniflab o‘qitishga oid tamoyillar ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi.

Bunda 6-sinf o‘quvchilar obyekt sifatida tanlanib, ushbu yoshdagi o‘quvchilar uchun matn strukturasiga oid nazariy bilimlarni qanday va qay usulda ishlab chiqish, nimalarga e’tibor qaratish kerakligini aniqlash maqsadida dastlab tajriba-sinov jarayoni tashkil qilindi. Bu jarayonda o‘quvchilardan 6-sinfga qadar mavjud bilimlari tekshirishga qaratilgan turli uslub va yo‘nalishdagi mashq va topshiriqlar orqali nazorat materiallari olindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, quyidagi xato va kamchiliklar kuzatildi:

- *xatboshiga ajrata olmaslik;*
- *fe'l zamonlari turli xil qo 'llash;*
- *ega va kesimning nomutanosibligi;*
- *kelishik qo 'shimchalarini to 'g'ri qo 'llanmaslik;*
- *gaplarning mantiqan bog 'lanmasligi;*
- *so 'zlarning takror qo 'llanishi;*
- *fikriy to 'xtamlik yo 'qligi;*
- *so 'z qo 'llash bilan bog 'liq xatolarning mavjudligi;*
- *olmoshni o 'z o 'rnida qo 'llamaslik;*
- *fikrning takror qo 'llanishi;*
- *matnning sarlavhaga mos kelmasligi;*
- *bog 'lovchi vositalardan to 'g'ri foydalanmaslik;*
- *sifatlovchi aniqlovchining o 'z o 'rnida qo 'llamasligi;*
- *matnga aloqador kirimalar (maqol, matal, hikmatli so 'z, she'r)dan to 'g'ri foydalanmaslik;*
- *fikrning chegaralanganligi;*
- *fikriy izchillikning yetishmasligi.*

Mazkur xato va kamchiliklarni inobatga olgan holda 6-sinf o‘quvchilarining matn strukturasiga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagicha tasnif qilib chiqildi:

MATN	mazmuni	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>ma'lum shaxs-narsa va voqeal-hodisalarga munosabat bildirish;</i></li> <li>• <i>fikr va dalillarni asoslab yoza olish;</i></li> <li>• <i>taffilotlarni mantiqan sharhlash;</i></li> <li>• <i>mantiqiy izchillikni tushuna olish.</i></li> </ul>
	shakli	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>xatboshiga ajrata olish;</i></li> <li>• <i>matn mazmuniga mos sarlavha tanlash;</i></li> <li>• <i>matn qismlarini tushunish;</i></li> <li>• <i>rasmiy uslubdagi matnlarni to 'g'ri shakllantirish.</i></li> </ul>
	sintaktik qurilishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>bog 'lovchi vositalaridan o 'rinli foydalanish;</i></li> </ul>

		<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>gaplarni olmoshlar orqali bog‘lanishi;</i></li> <li>• <i>kontekstga mos so‘zlar qo‘llay olish.</i></li> </ul>
uslubi		<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>matn maqsadidan kelib chiqib turli uslublarda qo‘llay olish.</i></li> </ul>

Ushbu tartib asosida o‘quvchilarga matn strukturasiga oid nazariy bilimlarni amaliy jarayonlar, turli nutqiy vaziyatlar doirasida mashq va topshiriqlar orqali o‘rgatib borish maqsadga muvofiq. Masalan, matn yaratishdan avval matn haqidagi tasavvur hosil qilish lozim. Buning uchun o‘quvchiga yaxlit matn berilib, ushbu matnni tahlil qilish jarayonida uni mazmuniy qismlarga ajratish, har bir qismda aks ettirilgan ma’no-mazmun, ularni yuzaga chiqaradigan til birliklari: so‘z, so‘z birikmalari, gap va gaplarni bir-biriga bog‘lovchi vositalarni aniqlash orqali matn haqidagi tasavvurlarini boyitib borish hamda turli uslubdagi matnlarni sintaktik qurilishini o‘zlashtirishda qoliplardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

O‘quvchi ta’lim subyekti sifatida o‘quv matnlarini tahlil va tadqiq etishga, qoidalar bilan amaliy tanishishi barobarida mustaqil ravishda nutqiy vaziyatga mos matn yaratish ko‘nikmasini egallashga yo‘naltirib borilishi zarur [K.Mavlonova, 2021:76].

Quyida matnning sintaktik qurilishi mavzusiga oid qoida va mashq namunasidan keltirib o‘tamiz.

**Qoida.** Gaplar bir-biriga olmoshlar orqali bog‘lanadi. Gaplarni olmoshlar orqali bog‘lash matndagi takrorni oldini oladi hamda mantiqiy izchillikni ta’minlaydi.

*Zokir do‘stlari bilan bekinmachoq o‘yini o‘ynayotgan edi. Bekinish uchun har tomonga tarqab ketganlarida Shokir yo‘l chetidagi ulkan kashtan daraxtining orqasiga bekinmoqchi bo‘ldi. Bu o‘yinda biror bolaning uni topib olishi qiyin edi.*

*Shu paytda oppoq soqolli musofir kishi shaharga kelib, Shokir bekinib turgan kashtan daraxtiga yaqinlashib qoldi va unga dedi: “O‘g‘lim, sendan bir manzil haqida so‘ramoqchi edim”. Shokir biroz shoshilib qoldi va undan jim bo‘lishini so‘rab qo‘llari bilan ishora qildi.*

*Haligi kishi Shokir nima uchun jim bo‘lishini talab qilayotganiga tushunmadi va unga ajablanib qarab dedi: “Sendan bir narsa haqida so‘ragandim. Agar bilsang xabarini ber, bilmasang o‘zing jim bo‘l!” So‘ngra taajjublanib dedi: “Shahar bolalari sog‘-salomat ekan-ku, ammo ularning ahvoli kulgili va qiziq!”*

*O‘yindagi bolalar anavi yerda bir keksa yoshli kishi daraxt ortiga bekingan o‘rtog‘i bilan gaplashib turganini ko‘rgach, o‘sha bola Shokir ekanini bilishdi. Oyoq uchida yurib sekin-asta o‘sha daraxtga yaqinlashishdi.*

*Ulardan qattiq norozi bo‘lgan qariya kelgan tomoniga qaytib keta boshladи. Shunda Shokir qattiq xijolat bo‘lib o‘yinini tashladi, bekingan joyidan chiqdi. Nuroniy qariyaning ortidan yugurdi va undan kechirim so‘radi. Keyin qariyani ketayotgan manziliga olib borib qo‘ydi [Ziyovuddin Rahim, 2015].*

Mazkur matnning birinchi qismida qo‘llangan “bu” olmoshi, o‘zidan oldingi ikkita gap mazmuniga, ikkichi qismdagi “shu” olmoshi matnning birinchi qismi mazmuniga ishora qilib, gaplarni mazmunan bog‘lashga xizmat qilgan. Matnning

boshqa qismlarida qo‘llangan olmoshlarni ham o‘zidan oldingi gapda qo‘llangan birlik yoki butun bir gap mazmuniga ishora qilayotganligini kuzatish mumkin.

### **Adabiyotlar:**

1. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o‘rtalim maktablarining 6-sinfi uchun. – Toshkent: Tasvir, 2017.
2. Mavlonova K.M. O‘quvchilarni matn qismlarini bog‘lovchi vositalar bilan tanishtirish. Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. – Toshkent, 2021.
3. Mavlonova K.M. va boshqalar. Matn tuzilishiga doir qoidalar. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
4. Yo‘ldoshev, R.A., Rixsiyeva, M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
5. Ziyovuddin Rahim. Bola odobi bilan aziz. – Toshkent, 2015.
6. Бекниязова Н. Бошлангич синфлар она тили дарсларида ўкувчиларга матн яратиши ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпок тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2012.

## **O‘QUVCHILARDA LISONIY HODISALARINI FARQLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

*Saidova Kamola, Alisher  
Navoiy nomidagi  
ToshDO‘TAU o‘zbek tili va adabiyoti  
ta’limi fakulteti 2-kurs magistranti*

### **Annotatsiya**

*Mazkur tezisda shakldosh so‘zlarni o‘rganishda maktab ta’limida duch kelinadigan ayrim muammolar va ularning yechimlari haqida so‘z boradi. Shakldosh so‘zlar va ko‘chma ma’noli so‘zlarni farqlashni osonlashtiradigan ayrim mashq va topshiriqlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy buyutma, shakldosh so‘zlar, o‘qib tushunish, bosh ma’no, ko‘chma ma’no, ma’no qirrasi.

Barcha davrlarda ta’lim maqsadini belgilash davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblangan. Ta’limning maqsadi jamiyat amaliy faoliyatining avvaldan fikran o‘ylangan natijasi bo‘lib, jamiyatning maktab oldiga qo‘yan ijtimoiy buyurtmasi ta’lim umumiy maqsadi asosida belgilanadi. Ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya’ni kommunikativ savodxonlikka o‘rgatishdan iborat [G‘ulomov, 1995. – 128 b.]. Shunga muvofiq holda ona tilidan ishlab chiqilgan Milliy dasturda quyidagi fikrlar keltirilgan. “Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab

<b>Dilnoza Boymaxmatova</b> Ona tili ta’limida to‘garak mashg‘ulotlarining tarixiy taraqqiyoti	<b>66</b>
<b>Sanobar Mirsolinova</b> Ona tili va adabiyot darslarida fanlararo integratsiya	<b>70</b>
<b>Shohista Xudoynazarova, Sayyora Matkarova</b> Til ta’limida matn bilan ishslash orqali o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirish	<b>73</b>
<b>Husnora Baxtiyorova</b> 6-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatishning mazmun-mohiyati	<b>76</b>
<b>Saidova Kamola</b> O‘quvchilarda lisoniy hodisalarini farqlash ko‘nikmasini shakllantirish usullari	<b>79</b>
<b>Xosiyat Navruzova</b> 7-sinf o‘quvchilarida sodda gap shakllarining o‘zlashtirilishi	<b>83</b>
<b>Zebiniso Davronova</b> Tasviriy matn yaratishda hissiy sezish qobiliyatining o‘rni	<b>87</b>
<b>Firuza Mirzraxmedova</b> Yangi O‘zbekistonda yangi islohotlar (yangi avlod darsliklari yuzasidan fikr-mulohazalar)	<b>89</b>
<b>Feruza Muratova</b> Ona tili darsliklarida topshiriqlar metodikasining takomillashuvi	<b>93</b>
<b>Yulduz Usmonova</b> Ona tili darslarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi xususida	<b>97</b>
<b>Aida Kamolova</b> Ona tili ta’limida faollashtiruvchi o‘yinlar (enerjayzerlar) ning o‘rni	<b>100</b>
<b>Xumora Erkinova</b> O‘quvchilarda mulohaza (agree or disagree) mazmunidagi esselar yozish ko‘nikmasini shakllantirish	<b>103</b>
<b>Nozanin Yusupova</b> Ona tili darslarida video va audio materiallardan foydalanish	<b>106</b>
<b>Iroda Xushvaqtova</b> Og‘zaki nutqni rivojlantirish zarurati	<b>109</b>
<b>Ziyoda Sobirxonova</b> Ona tili ta’limida o‘quv lug‘atlaring yaratilishiga bo‘lgan talab	<b>112</b>
<b>Marjona Nurboboyeva</b> Ona tili ta’limida sinonimlar elektron o‘quv lug‘atlaridan foydalanishning ahamiyati	<b>118</b>

## **TIL TA’LIMIDA BAHOLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

<b>Shohruh Abdiraimov</b> O‘qituvchilarining mumtoz matnni tushunish darajasini aniqlashga doir	<b>120</b>
<b>Oysuluv Musurmonkulova</b> Xalqaro tajribalar asosida o‘quvchilarni baholash usullari	<b>123</b>
<b>Nilufar Turg‘unova</b> Leksik birlklarni kontekstda qo‘llash bo‘yicha tajriba tahlili	<b>130</b>